

NATURAL ISHLAB CHIQRISHDAN TOVAR ISHLAB CHIQRISHGA O‘TISH VA UNING RIVOJLANISHI

Urinboyeva Yulduz Pirnazarovna
i.f.f.dok., dotsent
Mamatkulov Bobojon Shexrazovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada natural ishlab chiqarishdan Tovar ishlab chiqarishga o‘tish davri va uni rivojlanishi haqida so‘z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о периоде перехода от натурального производства к товарному производству и его развитию.

Annotation: This article talks about the period of transition from natural production to commodity production and its development.

Kalit so‘zlar: Natural ishlab chiqarish, Tovar ishlab chiqarish, Ijtimoiy xo‘jalik, Tovar xo‘jaligi, Tovar ikki xususiyatga ega, Tovar qiymatining miqdori, Almashuv qiymati.

Ключевые слова: Натуральное производство, Товарное производство, Общественная экономика, Товарное хозяйство, Товар имеет две характеристики, Величина товарной стоимости, Меновая стоимость.

Key words: Natural production, Commodity production, Social economy, Commodity economy, Commodity has two characteristics, Quantity of commodity value, Exchange value.

Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o‘tish va uning rivojlanishi rivojlanishda katta ahamiyatga ega jarayonlardir. Asosan, bu o‘tkazishlarning maqsadi sanoat sektori va iqtisodiyotning o‘zini rivojlantirish va kengaytirishidir. Bundan tashqari, bu jarayonlar korxonalarda yaratilayotgan foyda va harajatlarning nisbiy qulaylik darajasi, mahsulotlarning sifati, korxonalar o‘rtasida raqobat va boshqa ko‘rsatuvlarni ham o‘z ichiga oladi.

Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o‘tish va uning rivojlanishi tadbirkorlik sohasining kuzatilgan bosqichi bo‘lib, quyidagi muhim nuqtalarga ega:

1. Mahsulot qo'llanish talablarining o'zgarishi: Tabiiy vositalar orqali mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga o'tish korxonalarini talablarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga ko'maklashadi. Bu esa mahsulotlarning sifatini oshirib, ommaviy sohalar uchun zarur ko'rsatuvlarga ega mahsulotlarni yaratishga olib keladi.

2. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Tabiiy ishlab chiqarishdan tashqi tavsiyalar va innovatsiyalar yordamida kelib chiqadigan mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Bu esa korxonalarining operatsion faoliyatini rivojlantirish, foyda darajasini oshirish va raqobat qiliishga imkoniyat yaratadi.

3. Xarajatlar va muddatlarni sezilarliroq qilish: Tadbirkorlik tizimida mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish korxonalarida tovar ishlab chiqarishga o'tish, mahsulotlarni tayyorlash va yetkazib berish jarayonlarida xarajatlar va muddatlarni sezilarliroq qilish uchun qo'llangan innovatsion texnologiyalar va yangiliklar korxonalar tovar ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi.

4. Bozorlarga kirishning tashqi darajasi: Tabiiy ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi bozorlar va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish maqsadida ham muhim ahamiyatga ega. Bozorlarga kirish imkoniyatlarini rivojlantirish, yangi bozor segmentlari va ommaviy sohalarida niyobalarda ro'yxatdan o'tish tadbirkorlik sohasining rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Ulardek, natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi tadbirkorlik sohasida innovatsion yondashuvlar va rivojlanish uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Bu bosqichlar korxonalarining faoliyatini, samaradorligini va rivojlanishini kengaytirishda katta ahamiyatga ega.

Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi. Kishilik jamiyatining rivojlanishida ijtimoiy xo'jalikni tashkil etishning ikkita umumiy iqtisodiy shakli ajralib turadi. Umumiy iqtisodiy shakllarning tarixan birinchisi natural ishlab chiqarish hisoblanadi. Ijtimoiy xo'jalikning bu shaklida yaratilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, xo'jalik ichki ehtiyojlari uchun mo'ljallangan. Iste'mol hajmi va tarkibi ko'rincha ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga mos kelgan, ularning bir-biri bilan bog'lanishi bir xo'jalik doirasida amalga oshganligi sababli juda oson kechgan. Bunday munosabatlar eng avvalo hamma zarur narsani o'zi uchun tayyorlagan ibtidoiy jamoada hukm surgan. 'atriarxal dehqon xo'jaligi va feodal 'omestiyalari asosan natural xo'jalik bo'lgan. Natural ishlab chiqarish sharti ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanmaganligi oqibati sifatida vujudga kelgan, u vaqtda ijtimoiy mehnatdan uning u yoki bu turi endigina ajrala boshlagan edi. Bunday sharoitda biqiq yoki o'z ehtiyojlarini o'zi qondiradigan ishlab chiqarish organizmlari 'aydo

bo'lgan. Mehnat ularning tor doirasidagina ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan. Natural ishlab chiqarish shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo'jalik doirasida qat'iy cheklab qo'yadi, tashqi aloqalar uchun yul ochilmaydi. Ishchi kuchi muayyan xo'jalikka juda qattiq biriktirib qo'yiladi va ko'chib yurish imkonidan muhrum bo'ladi. Natural xo'jalik shakllarining xuddi shu ko'rsatkichlari qishloq xo'jalik jamoalari ming yillar davomida barqaror yashovchi bo'lib qolganligining «siri»ni ochib beradi. Natural xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarini nixoyat cheklab qo'yadi, ishlab chiqarish hajm jihatidan juda oz va turi jihatidan kam xil bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'ysungan. Shuning uchun ham jamiyat asta-sekinlik bilan tovar ishlab chiqarishga, o'tadi.

Tovar ishlab chiqarish, ya'ni tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mehnati mahsulini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning natural ishlab chiqarishdan farqi shundaki, bunda tovar yoki xizmat o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorga sotish uchun yaratiladi. Natural va tovar xo'jaliklarining bir-biridan farqini 1-jadval orqali ko'rish mumkin.

Asosiy jihatlar	Natural xo'jalik	Tovar xo'jaligi
1. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadi	Shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish	Boshqa tovarlarga ayirboshlash, bozorda oldi-sotdi qilish
2. Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining aniqlanishi	Ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oldindan aniqlanadi	Bozordagi muayyan talab va ishlab chiqaruvchining xususiy manfaati asosida aniqlanadi
3. Iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash	Bunday kurash mavjud emas	Bunday kurash mavjud va tovar xo'jaligining rivojlanishi bilan kuchayib boradi
4. Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilinishi darajasi	Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'laligicha iste'mol qilinadi	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ayrim turlari va <u>qismlarining sotilmay qolishi</u> , ya'ni iste'mol kilinmasligi
5. Ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining ishtirok etish tamoyillari	Ishlab chiqarish jarayonida faqat o'zining va oila a'zolarining ishchi kuchidan foydalaniladi	Ishlab chiqarish jarayonida yollanma ishchi kuchidan ham foydalanish mumkin

Natural va tovar xo'jaligining bir-biridan farqlanishi. Tovar ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning, mehnatni o'lchash va uni jamiyatning jami mehnati tarkibiga kiritishning o'ziga xos usulidir. Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida individual xo'jaliklarning tovar ayirboshlashga, oldi-sotdiga o'tish yo'li bilan boradi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayirboshlashni zarur qilib qo'yadi. Ixtisoslashuv esa mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi, demak tovar ayirboshlash faqat zarurgina emas, balki foydali bo'lib boradi. Vaqtni va moddiy resurslarni tejash tovar xo'jaligini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib chiqadi. Ayirboshlash jarayoniga tortiladigan ishlab chiqaruvchilar bir-biriga tobora ko'roq bog'liq bo'lib qola boshlaydi. Dastlabki davrlarda tovar xo'jaliklari jamoalar, quldor latifundiyalari, feodal va dehqon xo'jaliklari o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga yordam berib, ishlab chiqarishning va umuman jamiyatning rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochgan. Ma'lum tarixiy davrlarga kelib tovar munosabatlari jamiyat iqtisodiyotining barcha tomonlarini keng va chuqur qamrab oladi.

Tovar xo'jaligining va umuman ayirboshlash vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda shart-sharoitlari qanday? Bu, birinchidan, ijtimoiy mehnat taqsimotidir, bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv, o'z navbatida, qiyosiy ustunlik tamoyili bo'yicha, ya'ni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi. Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilar xususiy mulk munosabatlari tufayli iqtisodiy jixatdan bir-biridan muayyan tarzda alohidalashib qoladi, bunda ular o'z mehnat natijalarini o'zlari tasarruf qiladilar. Iqtisodiy alohidalik nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish zarurligi va yaratilgan mahsulotlarni qaerda va kimga sotishni faqat ishlab chiqaruvchining o'zi hal qilishini bildiradi. Xuddi shu ikki holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi va bozor vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat mahsuli tovarga, ya'ni bozorda ayirboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga, ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi. uchinchidan, bozor vujudga kelishining muhim shart-sharoitlaridan biri erkin ayirboshlash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va iqtisodiy alohidalik nima, qancha va kim uchun ishlab chiqarishni mustaqil aniqlash imkonini beradi.

Tovar ishlab chiqarish natural ishlab chiqarishga nisbatan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga, ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga ko'roq darajada imkon yaratadi, chunki:

- tovar ishlab chiqarish ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslanib, mehnat samaradorligining oshishiga xizmat qiladi;
- tovar ishlab chiqaruvchi katta daromadga ega bo'lishi uchun mehnat unumdorligini o'stiruvchi hamda tovar ishlab chiqarish sarflarini qisqartiruvchi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tatbiq etishi lozim;
- tovar ishlab chiqaruvchilar natural xo'jalik yurituvchilarga nisbatan ishlab chiqarish natijalaridan ko'roq manfaatdordirlar, agar ular daromad olmasalar xonavayron bo'ladilar;
- tovar ishlab chiqaruvchilar xonavayron bo'lmasligi va daromad olishlari uchun o'z faoliyatlarini xaridorlarga zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'naltira olishlari lozim, ular o'zlarining raqiblari ustidan g'alaba qozonishi uchun tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Natural xo'jalik yurituvchilar oldida bunday vazifa mavjud emas;
- tovar ishlab chiqaruvchi uchun iste'molchini o'ziga jalb qilish, o'z tovarini sotib daromad olish imkoniga erishish vositasi bo'lib yangi, nisbatan sifatli va jozibador tovarlarni ishlab chiqarish hisoblanadi.

Tovar ishlab chiqarishning mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun uning asosiy unsuri bo'lgan tovarning xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tovar va uning xususiyatlari. Tovar-pul munosabatlarini tushunishda tovarning mazmunini, uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga egadir. Tovarga ta'rif berishda ham iqtisodchilar tomonidan turlicha yondoshuvlar mavjud. Jumladan, E.F.Borisov ta'rifiga ko'ra «Tovar – bu bozorda boshqa tovarga ekvivalent asosida ayirboshlashga mo'ljallangan, mehnat orqali yaratilgan ijtimoiy naflidir». Bundan ko'rinadiki, u tovarga inson mehnati mahsuli sifatida qaraydi. V.I.Vidya'in va boshqalar tahriri asosida tayyorlangan darslikda «ne'mat» va «tovar» tushunchalariga keng izoh berilgan. Unda tovar iqtisodiy ne'matning maxsus shakli bo'lib hisoblanishi ko'rsatib berilgan: «Tovar – bu ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan maxsus iqtisodiy ne'mat». Bu va boshqa qator olimlarning fikrlari asosida ta'kidlash mumkinki, **tovar** - bu biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan ayirboshlash uchun yaratilgan mehnat mahsuli. Yoki, boshqacha aytganda, **tovar** biron-bir naflilikka (iste'mol qiymatga) va almashuv qiymatiga ega bo'lgan, bozor uchun ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatlardir. Demak, tovarning ikki xususiyati bor: birinchidan, u kishilarning qandaydir ehtiyojini qondiradi: ikkinchidan, u o'zida ijtimoiy mehnat sarflarini mujassamlashtiradi. Tovar boshqa buyumga ayirboshlana oladigan buyum bo'lib, u iste'mol qiymatga va almashuv qiymatlariga ega. Buyumning iste'mol qiymati shundan iboratki, u kishilar uchun foydali, naflidir. U shaxsiy iste'mol buyumi yoki ishlab chiqarish vositalari sifatida kishilarning biron–bir ehtiyojini qondiradi. Naflilikni aniqlashda ham turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, marjinalizm

maktabi asoschilari ham, ularning keyingi davomchilari ham tovarlar nafliligini aniqlashda alohida olingan individning hayolidagi ‘sixologik yondoshuv bilan, ya’ni hech kim bilan aloqasi bo’lmagan o’rmondagi cholning yoki kimsasiz orolda bir o’zi qolib ketgan Robinzonning hayoli bilan aniqlash usulini qo’llaydilar. Xolbuki, tovar ayirboshlash jamiyat a’zolari o’rtasida, gavjum bozor qatnashchilari o’rtasida sodir bo’ladi. Ular naflilikning negizida ob’ektiv iqtisodiy jarayon borligini, naflilik tabiat ashyosi bilan jonli mehnatning birikishi natijasida, to’g’rirog’i naflilik aniq mehnat bilan tabiat ashyosining xususiyatlari o’zgartirilishi natijasida vujudga kelishini o’ylab ham o’rtirmaydilar. Albatta, tabiatda mavjud bo’lgan yoki inson mehnati bilan yaratilgan har qanday narsa ham naflilikka ega bo’lavermaydi. Masalan, jamiyatga 100 dona soat zarur bo’lgani holda, 120 dona soatning ishlab chiqarilishi uning 20 donasining nafsiz bo’lishiga olib keladi. Ya’ni, jamiyat uchun zarur bo’lgan 100 dona soatgina naflilikka ega bo’ladi. Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy zaruriy naflilik degan tushuncha ishlatiladi va bozor mana shu ijtimoiy zaruriy naflilikni tan oladi.

Ijtimoiy zaruriy naflilik deb talab miqdoriga mos keladigan miqdordagi naflilikka aytiladi. Har bir tovar ma’lum bir naflilikka ega, lekin bu naflilik uni yaratuvchining o’z ehtiyojlarini emas, balki ayirboshlash orqali boshqa kishilar talabini qondiradi, ya’ni tovarning ijtimoiy nafliligi hisoblanadi. Bozor har qanday naflilikni emas, ijtimoiy naflilikni hisobga oladi. Agar bu fikrni yanada rivojlantirsak, bozor ijtimoiy zaruriy naflilikni, ya’ni jamiyat uchun (xaridorlar uchun) zarur miqdordagi naflilikni hamda shu ijtimoiy zaruriy miqdordagi naflilikni ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnatni hisobga oladi. Ijtimoiy naflilik tovarlarning boshqa tovarlarga ayirboshlanish qobiliyatiga ega bo’lganligi uchungina o’zining yaratuvchisini qiziqtiradi. Tovarning ayirboshlanuvchanlik xususiyati almashuv qiymati nomini oladi. Tovarlarni sotishda ularning narx ko’rsatkichi almashuv qiymatini yaqqol ko’rsatadi. Inson mehnati bilan yaratilmagan ko’lab ne’matlar masalan, buloq suvlari, yovvoyi daraxt mevalari ma’lum naflilikka ega bo’ladi. Lekin ular har doim ham tovar bo’lavermaydi. Masalan, bu ne’matlar o’sha joyning o’zidan olinib, iste’molchi tomonidan iste’mol qilinsa tovar hisoblanmaydi. Ne’matlar tovar bo’lishi uchun, ular ayirboshlashga mo’ljallangan, ma’lum mehnat sarflangan, bozorga sotishga chiqarilgan bo’lishi zarur. Shunga ko’ra, tovar mahsulotdan farqlanadi. Tovar, eng avvalo, o’z iste’moli uchun emas, balki boshqalarning iste’moli uchun bozorga sotish maqsadida tayyorlanadigan mahsulotdir. Tovarning natural–buyum va ijtimoiy–iqtisodiy tomonlari, xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak: Tovar, eng avvalo, o’z iste’moli uchun emas, balki boshqalarning iste’moli uchun bozorga sotish maqsadida tayyorlanadigan mahsulotdir. Tovarning natural–buyum va ijtimoiy–iqtisodiy tomonlari, xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi. Tovarning almashuv qiymati – bu biror

turdagi nafillikning boshqa turdagi nafillikka ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Understanding the Transition from Natural to Manufactured Capital: Implications for Investors" - Bu adabiyot, ekologiya, iqtisodiyot va sarmoyadorlik sohasidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi va tabiiy resurslar ishlab chiqarishidan o'tib, mahsulot ishlab chiqarishga yo'nalishni o'z ichiga olgan o'zgarishlarni o'rganishda yordam beradi.

2. "Economic Development and the Transition from Natural Capital to Produced Capital" - Bu kitob, iqtisodiy rivojlanish va sanoatga o'tishning konseptual o'zgarishlarini, korxonalar va tadbirkorlik sohasidagi o'zgarishlarni o'rganishga yordam beradi.

3. "The Role of Innovation in Transitioning from Natural Production to Manufactured Goods"- Bu adabiyot, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar bilan qanday ko'plab korxonalar uchun foyda va samaradorlik yaratishni tushuntiradi.

<https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/download/1302/1746>

<https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/742>